

Pedagogik mahorat va kasb standarti bo'yicha tushgan savollar 2025 bahorgi

1. Oqituvchi bu tadqiqot usuli orqali ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Tadqiqot samarali bolishi uchun suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish hamda olingan bilimlarni o'z vaqtida tahlil qila olishi lozim.

Javob: Suhbat metodi

2. 11 sinfda o'quvchilar o'zaro urishib qolishdi. Sinf rahbari vaziyatni eshitib, uni aniqladi va bolalarni yarashtirib qo'ydi. Bu gap sinfdan tashqariga chiqmasligini aytdi va ularni uylariga ruxsat berdi. Ushbu vaziyatda o'qituvchining qanday qobiliyati namoyon bo'lmoqda?

Javob: Mantiqiy qobiliyati.

(Javoblar orasida "anglash qobiliyati" kelmaganligi uchun ko'proq mantiqiy mos tushgan)

3. Moslashtiring.

Moslashtiring.

1. Tushuntirish
2. Suhbat.
3. Hikoya.

a) bu uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilari uchun dolzarbligi, o'quvchilarning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish zarur.

b) O'quvchilar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq me'yorlari, xalq o'tmishi, tabiiy boyliklar, qahramonlar hayoti va jasorati, shuningdek, tarix, adabiyot va san'at haqida hikoya qilib berish mumkin.

uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilari uchun dolzarbligi, o'quvchilarning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish zarur.

c) ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko'p ishlatiladigan metoddir. Uning vazifasi o'quvchilarni yuksak madaniyatli, milliy g'urur tuyg'usiga ega bo'lib voyaga yetishlarini tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Javob: 1-c, 2-a, 3-b

4. PISA haqida necha yilda o'tkaziladi degan savol tushgan.

Javob 3 yil

Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (inglizcha *Programme for International Student Assessment*) — turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. PISA testlari maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Ushbu dastur 1997-yilda joriy etilgan bo'lib, har uch yilda bir marta o'tkaziladi, birinchi marta 2000-yilda o'tkazilgan. **Har uch yilda bitta** fan yo'nalishiga afzallik berilib, jami testlar majmuasining deyarli 50% shu fanga mansub bo'ladi. 2000-yilda ilk bor o'qish savodxonligiga urg'u berilgan.

5. BLUM TAKSONOMIYASI

Javob:

1. Bilish

2. tushunish

3. qo'llash

4. tahlil qilish

5. sintez qilish

Blum taksonomiyasiga ilova o'rnida:

1. Bilish

Birinchi daraja olingan ma'lumotlarni o'quvchi eslab qolish va takrorlash bilan boshlanadi. O'quvchi asosiy atamalarni, aniq faktlarni, qoidalarni bilib oladi va ularni takrorlashi mumkin. Birinchi darajada mavzu haqida umumiy fikr shakllanadi. Maqsadni belgilash uchun harakat fe'llaridan foydalaning: o'quvchi aniqlash, **nomlash, eslab qolish**, tartibga solish, ro'yxatlash, o'rganish, topish, ko'rsatish, yozish, tanlash.

2. Tushunish

Ikkinchi bosqichda o'quvchi tushunish va xabardorlik sodir bo'ladi. Ushbu bosqichni o'zlashtirishning asosiy ko'rsatkichi materialni o'z so'zlaringiz bilan taqdim etish qobiliyatidir. O'quvchi qoidalar va prinsiplarni biladi va tushunadi, faktlar va hodisalarni tushuntirishi, grafikalar va diagrammalarga izoh berishi mumkin.

Harakat fe'llari: aniqlang, tushuntiring, tavsiflang, sharhlang, taqqoslang, umumlashtiring, ajratib oling, misol keltiring, izohlang, tarjima qiling.

3. Qo'llash darajasi

Uchinchi bosqichning maqsadi – o'quvchi olingan bilimlarni muayyan vaziyatlarda qanday ishlatishni o'rganish. O'quvchi amaliy muammolarni yangi qoidalar, formulalar va qonunlar yordamida hal qiladi. Tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas noan'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni ma'lum bir tizimda ko'rsata oladi. Ya'ni o'quvchi o'rgangan bilimlarini amalda qo'llay olish

Harakat fe'llari: qaror qabul qilish, tarqatish, ko'rsatish, tushuntirish, qo'llash, hisoblash, o'rganish, tajriba o'tkazish, topish, tanlash.

4. Tahlil qilish

Tahlil darajasida o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi bog'liqlik darajasini ajrata oladi. Mantiqiy fikrlash asosida xatolarni ko'ra oladi. Faktlar ular orasidagi farqlar, oqibatlarni o'hshash va farqli jihatlarni tahlil qila olishi

5. Sintez bosqichi

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurdagi ijodiy ish jarayonlar aks etadi va biror tajriba o'tkazish rejasini tuzib bir necha sohadagi bilimardan birdaniga foydalana olish imkoniga ega bo'ladilar. Ayrim materiallar asosida butunning, yaxlitning obrazni ko'rinishini yaratadilar. Bu bosqichda o'quvchilar o'zlariga zarur bo'lgan ma'lumotlarni ajrata olish ko'nikmasiga ega bo'la oladilar.

6. Baholash bosqichi

O'quvchilar barcha kategoriyalar bo'yicha o'quv natijalariga erishishni va aniq ifodalangan mezonlarga asoslanib, baholash mulohazalarini taqozo etadi. Ichki va tashqi mezonlar asosida o'quvchi p'rganganlarini baholaydilar hamda ma'lum xulosaga keladilar. Harakat fe'llari: kashf qilish, tuzish, himoya qilish, bayon qilish, muhokama qilish, tekshirish, asoslash, tasdiqlash, bashorat qilish.

BLUM taksonomiyasi oddiydan murakkabga qarab mavzularni o'zlashtirish va uni amalda qo'llay olish natijasidir.

6. Ta'limda 4K metodi. Bu nima degani? **Ketma-ketligi bilan yodlang!**

4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Kreativ fikrlash: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

7. **Deduksiya** – Umumiy bilimlar asosida yangi xususiy bilimlarni olish.

Induksiya – Bilishning shunday yo'li, bunda o'quvchining fikri birlikdan umumiylikka, xususiy xulosalardan umumiy xulosaga o'tib boradi.

Analogiya – bunda predmetlar ba'zi belgilarining o'xshashligi bo'yicha, bu predmetlar boshqa belgilari bo'yicha ham o'xshash degan taxminiy xulosa chiqariladi.

8. Pedagogik nizolarni hal qilishning pedagogik usullarini sanang

Javob: 1. Ishontirish 2. Suhbat

9. Sinfni guruhlarga bo'lib, dars so'ngida baholansa baholashning qanday turiga kiradi?

Javob: Formativ

10. Har yili maktabning barcha sinf o'quvchilaridan monitoring nazorat ishi olinadi. Bu orqali o'quvchilarning bilim samaradorliklari aniqlanadi. Bu qanday baholash turiga kiradi?

Javob: diagnostik baholash

11. O'qituvchi chorak yakunlash uchun o'quvchilardan test nazorati oldi. Bu qanday baholash turi hisoblanadi?

Javob: summativ

12. Baholash turlarini moslashtiring

1. Kimyo fani o'qituvchisi darsda o'quvchilarni kundalik baholab boradi

2. Biologiya o'qituvchisi o'quv yili boshida o'quvchilar bilimini o'rganish uchun ularni baholab oladi

3. Fizika fani o'qituvchisi o'quvchilarni yil yakunida darslar tugaganida baholadi.

a) diagnostik

b) formativ

c) summativ

Javob: 1-b, 2-a, 3-c

13. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bir hillikdan zerikib har bir dars uchun texnologik xarita tuzishi va bu darslarni hilma-hil o'tishini ta'minlashi pedagogik texnologiyaning qaysi darajasi

Javob: Mezo daraja.

14. **Umumpedagogik (makro) daraja** - Mazkur darajaga muvofiq texnologiyalar yaxlit pedagogik jarayonga tegishli

Xususiyy-metodik (mezo) daraja - Ushbu daraja o'zida ma'lum bir o'quv fanini o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirishni o'zida aks ettiradi

Lokal daraja (mikro) - Mazkur darajaga tegishli texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayonining ma'lum tarkibiy qismi, alohida shaxs sifatlarini shakllantirish, maxsus o'quv ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi. **Misol uchun:** O'qituvchi o'quvchilarni

tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish uchun darslarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi, o'quvchilarni aqliy qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasidan foydalanib dars o'tmoqda. Ushbu vaziyatda pedagogik texnologiyaning qanday darajasi namoyon bo'lmoqda

15.

Masofaviy ta'lim	O'quvchi va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar @Pedagogik_mahoratt @Nilufar_Ahmadaliyeva
-------------------------	---

16. Bolalar bilan muloqot qilish va ularning qadr-qimmatini tan olish o'qituvchining qaysi kompetensiya standartlariga kiradi?

Javob: Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish (kasbiy standart)

17. Milliy modelning tarkibiy qismlari

- 1.Shax
- 2.Davlat va jamiyat
- 3.Uzluksiz ta'lim
- 4.Fan
- 5.Ishlab chiqarish

Javob: 1,2,3,4,5

18. O'quv yili boshida yangi kelgan bir o'quvchi o'z sinfdoshlariga qo'shib ketishda qiyinchilikka duch keldi. U odatda ko'p gapirmas va boshqalar bilan muloqot qilishni xohlamas edi. O'qituvchi bola bilan alohida **gaplashishga** qaror qildi. U bolaning qiziqishlari, orzulari va qiyinchiliklari haqida so'radi. Bolaning ichki hissiyotlarini tushunish uchun uning so'zlarini **e'tibor bilan tingladi**.

Savol: Ushbu vaziyatda o'qituvchida qaysi qobiliyat rivojlangan?

Javob: kommunikativ qobiliyat

Asos

6.Kommunikativ ta'sir ko'rsatish	<i>o'quvchilar bilan muloqotda bo'lish</i> , ularga to'g'ri yondoshish, pedagogik nazokat bilan ularga <i>tarbiyaviy, irodaviy va hissiy ta'sir etish</i>
---	---

19. Moslashtiring

1.Surdopedagogika va surdopsixologiya	A) ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni o'rganadi
---------------------------------------	--

2.Tiflopedagogika va tiflopsixologiya	B) eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashni o'rganadi @Pedagogik_mahoratt @Nilufar_Ahmadaliyeva
3.Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya	C) aqli zaif bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni o'rganadi.

Javob: 1-B, 2-A, 3-C

20. Moslashtirring

1. Logopediya va nutqiy buzilishlar psixologiyasi	A) murakkab nuqsonlar (ko'r, soqov va karlik)ni o'rganuvchi maxsus pedagogika va psixologiya sohalari @Pedagogik_mahoratt @Nilufar_Ahmadaliyeva
2. Motorli-harakatlanish	B) nutqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni o'rganadi

Javob: 1-B, 2-A

21. O'qituvchi uchinchi sinf o'quvchilariga mavzuning tayyor qoidasi bilan tanishtirdi va o'qituvchi mana shu qoidani tahlillar bilan misollar orqali o'quvchiga tushuntirdi. Bu qaysi metod?

Javob: Deduksiya (Umumiy bilimlar asosida yangi xususiy bilimlarni olish.)

22. Ikki meva saqlagichda 1568 s karam bor edi. Birinchi meva saqlagichdan 240 s, ikkinchisidan 364 s olingandan keyin ikkalasida ham bir xil miqdorda karam qoldi. Har qaysi meva saqlagichda qancha karam bo'lgan? Ushbu masalani yechishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga shunga o'xshash osonroq masala berdi va shundan so'ng o'quvchilar yuqoridagi masalani bajaradilar. Ushbu vaziyatda qanday usul namoyon bo'lmoqda?

Javob: Anologiya (bunda predmetlar ba'zi belgilarining o'xshashligi bo'yicha, bu predmetlar boshqa belgilari bo'yicha ham o'xshash degan taxminiy xulosa chiqariladi.)

23. Birinchi sinf o'qituvchisi matematika darsida birinchi, ikkinchi qo'shiluvchi va yig'indi hosil bo'lishi haqida ma'lumotlar berib misollar keltirdi va birinchi va ikkinchi qo'shiluvchilarning o'rni almashmagani bilan yig'indining qiymati o'zgarmasligini aytib, misollar orqali o'quvchilarga tushuncha berdi va dars oxirida bergan ma'lumotlari asosida "Qo'shiluvchilarning o'rni almashgani bilan yig'indi o'zgarmaydi" degan ta'rifni o'quvchilarga o'rgatib o'tdi. Ushbu vaziyatda o'qituvchi qanday metoddan foydalandi?

Javob: Induksiya (Bilishning shunday yo'li, bunda o'quvchining fikri birlikdan umumiylikka, xususiy xulosalardan umumiy xulosaga o'tib boradi.)

24. Moslashtirring

1.Arbitraj	a) O'qituvchi nizoning sabablarini tushunishga yordam beradi va o'quvchilarga kelishmovchilikni hal qilish yo'llari bo'yicha mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkonini beradi. @Pedagogik_mahoratt @Nilufar_Ahmadaliyeva
2.Muzokaralar	b) Bunday holda, o'qituvchi vaziyatni o'rganish asosida "qaror qabul qiladigan" "hakam" rolini o'z zimmasiga oladi. U o'quvchilarga qanday qilib yarashish kerakligini, ya'ni kim nima qilishi va kelajakda o'zini qanday tutishi kerakligini aytadi.
3.Mediatsiya	c) O'quvchilar nizoni o'zlari qanday hal qilishni bilmasalar, ular muloqotga xolis yordam beradigan, his-tuyg'ular darajasini pasaytiradigan va yakuniy qarorni qabul qiladigan vositachi yordamida ta'minlanishi mumkin.

Javob: 1-b, 2-a, 3-c

25. Adabiyot darsini o'quvchilar judayam yahshi ko'radilar. Chunki o'qituvchi dars davomida asar qahramonlarini hayotiy misollar yordamida batafsil tushuntirish bilan bir qatorda yahshi muloqot muhitini ham yarata olgan. O'quvchilar fikrlarini erkin bayon eta olishlari o'zaro ijobiy muhitni yuzaga keltirgan.

Ushbu holatda o'qituvchida qaysi refleksiya turi nomoyon bo'lmoqda ?

Javob: kommunikativ refleksiya

26. Pedagogik nizo turlari

Javob: 1,2,3,4

- 1.Tez yakun topuvchi
- 2.Uzoq muddat davom etuvchi
- 3.Kuchsiz, sust kechadigan
- 4.Kuchli, tez kechadigan

26.Moslashtiring

Monolog	a) o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida tashkil etiladigan suhbat
Dialog	b) o'qituvchi va bir nechta o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi o'rtasidagi suhbatni ifodalovchi nutq. @Pedagogik_mahoratt @Nilufar_Ahmadaliyeva
Poliolog	c) o'qituvchining o'ziga yoki o'quvchilarga qaratilgan nutqi

Javob: 1-c, 2-a, 3-b

@Pedagogik_mahoratt

@Nilufar_Ahmadaliyeva

@Pedagogik_mahoratt @Nilufar_Ahmadaliyeva

@Pedagogik_mahoratt